

ABDULLA AVLONIY HAYOT YO'LLARI TAHLILI TALABALAR NIGOHIDA

Rahimjonova Xumora Ziyovuddin qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Xorijiy tillar fakulteti talabasi

raximjonovaxumora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshidagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy ma'naviy va ma'rifiy merosining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni masalasi atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, jadidchilik, amaliy ma'rifatchilik, ma'rifatparvar adib, Abdulla Avloniy, «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Turkiy Guliston yoxud axloq», milliy uyg'onish g'oyalari.

Аннотация: В данной статье подробно рассмотрен вопрос о роли духовно-просветительского наследия одного из выдающихся представителей Узбекской национальной культуры конца XIX-начала XX веков – поэта, драматурга, журналиста, ученого, государственного и общественного деятеля Абдуллы Авлони в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: образование-воспитание, джадидизм, практическое просвещение, просвещенный писатель, Абдулла Авлони, «Первый учитель», «Второй учитель», «Тюркский Гулистан или этика» идеи национального возрождения.

Abstract: This article examines in detail the role of the spiritual and educational heritage of one of the outstanding representatives of the Uzbek national culture of the late XIX-early XX centuries – poet, playwright, journalist, scientist, statesman and public figure Abdullah Avloni in the education of the younger generation.

Key words: education-upbringing, jadidism, practical enlightenment, enlightened writer, Abdullah Avloni, «First teacher», «Second teacher», «Turkic Gulistan or ethics», ideas of national revival.

XX – asr boshlarida o'zining xalqparvarlik fazilatlari bilan ajralib turadigan shoir, dramaturg, buyuk pedagog bir qancha yangi uslubdagi maktablar asoschisi, jadidlar jamoasining bir a'zosi bo'lgan bobokalonimiz Abdulla Avloniy hayotini o'rganish har bir yosh avlodning oldidagi yuksak fazifasidir.

Milliy uyg'onish davri adabiyotini o'rgangan o'zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri Begali Qosimov Abdulla Avloniy haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: «Abdulla Avloniyning ta'limiy asarlari xususan «Turkiy Guliston yoxud axloq»

risolasi asriy qadriyatlarimiz milliy ma'naviyatimiz tiklanayotgan bugungi kunlarimiz uchun g'oyat dolzarb bo'lib turibdi. Mashhur ma'rifatchining «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» darsliklarida keltirilgan ixcham hikoyalar, «Tarixi anbiyo» sizdagi ma'lumotlar yosh avlod tarbiyasi uchun foydadan xoli emas. Adib dramalari esa o'zbek teatrchiligiga tamal toshini qo'ygan teatr arbobining intilish va imkoniyatlarini o'zbek dramachiligining ilk qadamlarini yaqinroqdan ko'rish va anglashga yordam beradi» deydi.

Atoqli ma'rifatparvar, xalqparvar, ona xalqi uchun buyuk jasoratlar ko'rsatgan shoir, komil insonlardan biri bo'lgan Abdulla Avloniy 1878 – yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. U tarjimai holida bu haqda shunday yozgan: «12 yoshimdan O'qchi mahallasidagi madrasada dars o'qiy boshladim. 13 yoshimdan boshlab yoz kunlari mardikor ishlab, oilamga yordam qilib, qish kunlari o'qir edim. 14 yoshimdan boshlab, o'sha zamonga muvofiq har xil she'rlar yoza boshladim. Bu zamonlarda «Tarjumon» gazetasini o'qib, zamondan xabardor bo'ldim». Avloniy madrasani bitirib, maktabdorlik bilan shug'ullandi. O'qish va o'qitish usuliga isloh kiritib, yangi tipdagi maktab tashkil etdi va yosh pedagog-o'quvchilarga zamonaviy bilimlar berish, Sharq va G'arb tillarini o'rgatish kabi muhim ta'lim-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirdi. Abdulla Avloniy maktab o'quvchilari uchun «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim», «Tarix», «Turkiy Guliston yoki axloq» kabi zamonasi uchun hodisa bo'lgan darsliklarni yozgan. 1895 yildan ijodiy faoliyati boshlangan Avloniy «Qobil», «Shuhrat», «Hijron», «Avloniy», «Surayyo», «Abulfayz», «Indamas» taxalluslari bilan she'r, hikoya, feleton va kichik hajmli dramatik asarlar yaratgan. Shoir o'z asarlarida zamonasidagi qoloqlikni, johillikni tanqid qiladi va kishilarni bilimga, ma'rifatga chaqiradi. Abdulla Avloniy 1917 yilgacha mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan noshir va jurnalist sifatida Toshkentda «Shuhrat», «Osiyo» kabi gazetalarni tashkil etadi. U «Advokatlik osonmi?», «Ikki muhabbat», «To'y», «S'ezd», «Layli va Majnun», «O'liklar» kabi dramatik asarlarni yozib, ularda jaholat, bid'at, bilimsizlikning fojeali oqibatlarini, qo'pol va yaramas urf-odatlarini fosh etadi. Abdulla Avloniy shoir sifatida ko'plab she'rlar bitgan. Uning she'rlari xoh eski urf-odatlarga qarshi qaratilgan bo'ladimi, xoh muhabbat yoki maktab-maorif haqida bo'ladimi, hamma-hammasida inson, uning axloqiy go'zalligi va ma'naviy boyligi kuylanadi. Jumladan, «O'z mamlakatimizda» she'rida maishat uchun pul-boylilikni mo'l-ko'l isrof etgan, ammo bola tarbiyasi uchun sariq chaqani ravo ko'rmagan xasislarni «Ilm uchun pulni ko'zlari qiymas», deb qoralaydi. Ayniqsa, uning «Adabiyot» kitobi bu jihatdan alohida ajralib turadi. Avloniy 1913 yili «Turon» teatr truppasini tashkil etdi va shu teatr uchun original sahna asarlarini yaratish bilan birga qardosh dramaturglarning pesalarini o'zbek tiliga tarjima ham qildi. Abdulla Avloniy 20-yillarda o'zbek xalqi maorifi va madaniyati taraqqiyotida ishtirok etibgina qolmay, qo'shni afg'on xalqining ijtimoiy-siyosiy

hayotida ham muayyan rol o'ynagan. U ma'lum muddat Afg'oniston xalq maorifi vaziri, so'ng Sho'rolar Ittifoqining Afg'onistondagi konsul-elchisi vazifalarida xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlaganidek, 20 asr boshlarida «Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning unyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo'l bermadi. Ma'rifat fidoyilari o'sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo'ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg'in va qatag'on qildi. Shu tariqa milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo'lib qoldi ».

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, buyuk allomamiz bolalarni yoshlikdanoq ta'lim tarbiya berib katta qilish kerakligini maqullagan mutafakkirlarning fikriga qo'shilgan holda o'quvchilarni yangi o'quv qo'llanmalar bilan ta'minlashga astoydil kirishgan. Uning barcha asarlari hozirda mufassal o'rganilib, hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida muhim nazariy manba sifatida qo'llanilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://tafakkur.net/abdulla-avloniy.haqida>
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. Toshkent- Ma'naviyat. 2009.
3. Ўқитувчи ва мураббийлар янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суюнчимиздир /Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг 2020 йил 1-октябрь – Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи// Халқ сўзи, 2020 йил 1 октябрь, 207 (7709).